



# IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

**№5**



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>

**2026**



## IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

### Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

*Elektron nashr. 2026-yil, may.*

### Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

### Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

### Tahrir hay'ati:

**Salimov Oqil Umrzoqovich**, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi  
**Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich**, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi  
**Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich**, texnika fanlari doktori (DSc), professor  
**Rae Kvon Chung**, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati  
**Osman Mesten**, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari  
**Axmedov Durbek Kudratillayevich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Axmedov Sayfullo Normatovich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Kalonov Muxiddin Baxritdinovich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Siddiqova Sadoqat G'afforovna**, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
**Xudoyqulov Sadirdin Karimovich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Maxmudov Nosir**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Yuldashev Mutallib Ibragimovich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Samadov Asqarjon Nishonovich**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor  
**Slizovskiy Dimitriy Yegorovich**, texnika fanlari doktori (DSc), professor  
**Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Axmedov Ikrom Akramovich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Hakimov Nazar Hakimovich**, falsafa fanlari doktori (DSc), professor  
**Musayeva Shoirazimovna**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor  
**Ali Konak (Ali Ko'nak)**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)  
**Cham Tat Huei**, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)  
**Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja o'g'li**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.  
**Faxridinov Zafarjon Faxridin o'g'li**, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi HIJQKD boshqarma boshlig'i  
**Utayev Uktam Choriyevich**, Anijon viloyati prokurorining o'rinbosari  
**Ochilov Farkhod**, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi IJQK Departamentining Namangan viloyati boshqarmasi boshlig'i  
**Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent  
**Axmedov Javohir Jamolovich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
**Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li**, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi  
**Bobobekov Ergash Abdumalikovich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.  
**Djudi Smetana**, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)  
**Krissi Lyuis**, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)  
**Glazova Marina Viktorovna**, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)  
**Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
**Sevil Piriyeva Karaman**, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)  
**Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li**, TDIU ITI departamenti rahbari  
**Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li**, TDIU katta o'qituvchisi  
**Golisheva Yelena Vyacheslavovna**, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.  
**Abdulkarimova Dinara Rustamxonovna**, bank-moliya akademiyasi professori, DSc., professor.  
**Ikramov Murod Akramovich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Nazarova Ra'no Rustamovna**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor



## IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

### Editorial board:

**Salimov Okil Umrzokovich**, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan  
**Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich**, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan  
**Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich**, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor  
**Rae Kwon Chung**, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate  
**Osman Mesten**, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society  
**Akhmedov Durbek Kudratillayevich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Akhmedov Sayfullo Normatovich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Siddikova Sadokat Gafforovna**, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences  
**Khudoykulov Sadirdin Karimovich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Makhmudov Nosir**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Yuldashev Mutallib Ibragimovich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Samadov Askarjon Nishonovich**, Candidate of Economic Sciences, Professor  
**Slizovskiy Dmitriy Yegorovich**, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor  
**Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Akhmedov Ikrom Akramovich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Eshtayev Alisher Abduganiyevich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Khakimov Nazar Khakimovich**, Doctor of Philosophy (DSc), Professor  
**Musayeva Shoira Azimovna**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor  
**Ali Konak**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)  
**Cham Tat Huei**, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)  
**Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor  
**Fakhriddinov Zafarjon Fakhriddin ogli**, Head of the DCEC under the Prosecutor General's Office of the Rep. of Uzb.  
**Utayev Uktam Choriyevich**, Deputy Prosecutor of Anijan Region  
**Ochilov Farkhod**, Head of the Namangan Regional Department of the Department of Internal Affairs of Rep. of Uzb.  
**Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich**, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor  
**Akhmedov Javokhir Jamolovich**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences  
**Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli**, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer  
**Bobobekov Ergash Abdumalikovich**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor  
**Judi Smetana**, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)  
**Chrissy Lewis**, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)  
**Glazova Marina Victorovna**, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)  
**Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor  
**Sevil Piriyeva Karaman**, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)  
**Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli**, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE  
**Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli**, Senior lecturer at TSUI  
**Golisheva Yelena Vyacheslavovna**, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.  
**Abdukarimova Dinara Rustamkhanovna**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Ikramov Murod Akramovich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Nazarova Ra'no Rustamovna**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

### Ekspertlar kengashi:

**Berkinov Bazarbay**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Po'latov Baxtiyor Alimovich**, texnika fanlari doktori (DSc), professor  
**Aliyev Bekdavlat Aliyevich**, falsafa fanlari doktori (DSc), professor  
**Isakov Janabay Yakubbayevich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Xalikov Suyun Ravshanovich**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent  
**Rustamov Ilhomiddin**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent  
**Hakimov Ziyodulla Ahmadovich**, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent  
**Kamilova Iroda Xusniddinovna**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
**G'afurov Doniyor Orifovich**, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
**Fayziyev Oybek Raximovich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
**Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
**Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi**, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent  
**Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna**, katta o'qituvchi  
**Babayeva Zuhra Yuldashevna**, mustaqil tadqiqotchi  
**Komilova Nilufar Karshiboyevna**, Geografiya fanlari doktori, professori  
**Umirzoqov Ja'sur Artiqboy o'g'li**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent  
**Zebo Kuldasheva**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

### Board of Experts:

**Berkinov Bazarbay**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Pulatov Bakhtiyor Alimovich**, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor  
**Aliyev Bekdavlat Aliyevich**, Doctor of Philosophy (DSc), Professor  
**Isakov Janabay Yakubbayevich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Khalikov Suyun Ravshanovich**, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor  
**Rustamov Ilhomiddin**, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor  
**Khakimov Ziyodulla Akhmadovich**, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor  
**Kamilova Iroda Xusniddinovna**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics  
**Gafurov Doniyor Orifovich**, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy  
**Fayziyev Oybek Raximovich**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor  
**Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor  
**Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna**, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor  
**Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna**, Senior Lecturer  
**Babayeva Zuhra Yuldashevna**, Independent Researcher  
**Komilova Nilufar Karshiboyevna**, Doctor of Geographical Sciences, Professor  
**Umirzokov Jasur Artiqboy ugli**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor  
**Zebo Kuldasheva**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

**Muassis:** "Ma'rifat-print-media" MChJ

**Hamkorlarimiz:** Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti

### Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2023-yil 1-apreldagi 336/3-sonli qarori bilan ro'yxatdan o'tkazilgan.



# MUNDARIJA

SANOAT KORXONALARINING IQTISODIY SALOHİYATINI OSHIRISHDA RAQAMLI TRANSFORMATSİYANING O'RNİ .....	18
<b>O'rinov Akmaljon Ahmadjonovich</b> <b>Siddiqov Javlonbek Sodiqjon o'g'li</b>	
XORAZM VILOYATIDA KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINING JORIY HOLATI VA RIVOJLANISH OMILLARI TAHLILI .....	22
<b>Ro'zmatova Farahongiz Bekmurotovna</b>	
ENERGETIKA INFRATUZILMASINING HUDUDIY RIVOJLANISH VA IJTIMOY TENGLIKKA TA'SIRI.....	27
<b>Babajanova Dilfuza Abdurasulovna</b>	
HUDUDLARDA LOKAL TURIZM XIZMATLARINING TARKIBI VA RIVOJLANISH DINAMIKASI TAHLILI (ANDIJON VILOYATI MISOLIDA) .....	32
<b>Xasanova Mavjuda Ma'mirjonovna</b>	
TURIZM MAVSUMIYLIGI OMILLARINING KOMPLEKS TAHLILI: TASNIFLASHNING KONSEPTUAL VA INTEGRATSION MEXANIZMLARI.....	41
<b>Barotov Umidjon Mahmud o'g'li</b>	
BOSHQARISH SIFATI MOHIYATI VA UNI OSHIRISHNING OBYEKTIV ZARURIYATI.....	48
<b>Shoyev Davronbek Axmadjonovich</b> <b>Abdullayeva Gulsanam</b>	
ENGLISH LOANWORDS IN RUSSIAN AND UZBEK: TERMINOLOGICAL ADAPTATION WITHIN A COMPARATIVE LINGUISTICS FRAMEWORK .....	53
<b>Kambarova Liliya Ruslanovna</b>	
РОЛЬ ГОСУДАРСТВА В ФОРМИРОВАНИИ ИННОВАЦИОННОЙ ЭКОНОМИКИ И ПРИВЛЕЧЕНИИ ИНВЕСТИЦИЙ .....	56
<b>Алибекова Саодат Лапасовна</b>	
EKSPORTGA YO'NALTIRILGAN SANOAT KORXONALARIDA MARKETING XIZMATINI TASHKIL ETISHNI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI .....	61
<b>Usmonova Dilfuza Ixomovna</b>	
O'ZBEKISTON INDIVIDUAL SPORTCHILARINI TAYYORLASH TIZIMI BOSHQARUVIGA RAQAMLI TA'LIM TEXNOLOGIYALARI JORIY ETISHNING SAMARALI USULLARI.....	66
<b>Junaydullayev Mels Asliddin o'g'li</b>	
KORXONA IQTISODIY BARQARORLIGINI TA'MINLASHDA ERP TIZIMLARINING SAMARADORLIGINI BAHOLASH .....	72
<b>Xaydarova Kamola Axinjanovna</b> <b>Berdiqulov Suhrob Berdiqulov o'g'li</b>	
KORPORATIV BIRLASHISHLAR VA QO'SHIB OLISHLAR: NAZARIY ASOSLARI VA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI .....	78
<b>Latipova Shaxnoza Maxmudovna</b> <b>Xolmurodova Sevara Asqarovna</b>	
DAVLAT BUDJETI KAPITAL XARAJATLARIDA RISKLARNI BOSHQARISHNI TAKOMILLASHTIRISH .....	84
<b>Guzal Navruzova</b>	



# DAVLAT BUDJETI KAPITAL XARAJATLARIDA RISKLARNI BOSHQARISHNI TAKOMILLASHTIRISH

Guzal Navruzova

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti doktoranti

E-mail: navruzovaguzal6066@gmail.com

ORCID: 0009-0006-9577-3744

Tel.: +998 90 952-60-66

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada davlat budjeti xarajatlarining uchinchi guruhi — kapital qo'yilmalar doirasida risklarni boshqarish masalalari tahlil qilinadi. Tadqiqotda G'aznachilik tizimining mavjud nazorat mexanizmlari, ularning cheklangan jihatlari hamda zamonaviy raqamli yechimlar orqali ularni takomillashtirish imkoniyatlari o'rganilgan. Xususan, avtomatlashtirilgan risk-skoring tizimi, blokcheyn texnologiyasi, "Value for Money" auditori hamda "Shaffof qurilish" tizimini joriy etish taklif etiladi. Natijalar shuni ko'rsatadiki, ushbu innovatsion yondashuvlar inson omilini sezilarli darajada kamaytirib, budjet mablag'larining samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

**Kalit so'zlar:** kapital qo'yilmalar, davlat budjeti, g'aznachilik nazorati, risklarni boshqarish, blokcheyn, VFM auditori, risk-skoring, shaffoflik.

**Аннотация.** В данной статье анализируются вопросы управления рисками в рамках третьей группы расходов государственного бюджета — капитальных вложений. В исследовании рассматриваются существующие механизмы контроля казначейская система, их ограничения, а также возможности их совершенствования с использованием современных цифровых решений. В частности, предлагается внедрение автоматизированной системы риск-скоринга, технологии блокчейн, аудита "Value for Money", а также системы "Прозрачное строительство". Результаты показывают, что данные инновационные подходы позволяют существенно снизить влияние человеческого фактора и повысить эффективность использования бюджетных средств.

**Ключевые слова:** капитальные вложения, государственный бюджет, казначейский контроль, управление рисками, блокчейн, аудит VFM, риск-скоринг, прозрачность.

**Annotation.** This article analyzes risk management issues within the third category of public budget expenditures — capital investments. The study examines existing control mechanisms of the treasury system, their limitations, and opportunities for improvement through modern digital solutions. In particular, the implementation of an automated risk-scoring system, blockchain technology, "Value for Money" audit, and the "Transparent Construction" system is proposed. The findings indicate that these innovative approaches significantly reduce the human factor and contribute to improving the efficiency of public budget expenditures.

**Keywords:** capital investments, public budget, treasury control, risk management, blockchain, VFM audit, risk scoring, transparency.

## KIRISH

Zamonaviy iqtisodiyot sharoitida davlat moliyaviy resurslarini samarali boshqarish va ulardan oqilona foydalanish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Davlat budjeti xarajatlari tarkibida kapital qo'yilmalar (infratuzilma, qurilish, investitsion loyihalar) alohida o'rin tutib, ular iqtisodiy o'sishni rag'batlantirish, hududiy rivojlanishni ta'minlash va ijtimoiy infratuzilmani yaxshilashda muhim omil hisoblanadi (Jumayev, 2020; World Bank, 2021). Shu sababli kapital xarajatlar ustidan samarali nazoratni tashkil etish davlat moliyaviy boshqaruving strategik vazifasi sifatida namoyon bo'ladi (OECD, 2020).

Amaliyot shuni ko'rsatadiki, kapital qo'yilmalar bilan bog'liq davlat xarajatlari yuqori darajadagi e'tibor va takomillashtirilgan nazoratni talab etadi. Xususan, ayrim hollarda mablag'lardan foydalanish samaradorligini oshirish, smeta qiymatlarini yanada asosli shakllantirish hamda loyihalarni sifatli amalga oshirish masalalari dolzarb bo'lib qolmoqda (Transparency International, 2021). Statistik ma'lumotlarga ko'ra, qurilish sohasida



nazorat mexanizmlarini yanada kuchaytirish va boshqaruv samaradorligini oshirish imkoniyatlari mavjud (World Bank, 2020). Bu esa mavjud tizimlarni rivojlantirish, ularni zamonaviy yondashuvlar asosida takomillashtirish va samaradorligini oshirish zarurligini ko'rsatadi.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Mahalliy olimlar tomonidan ham davlat moliyaviy nazoratini takomillashtirish masalalari o'rganilgan. Xususan, Vahobov (2019) davlat moliyaviy nazoratining nazariy asoslarini ishlab chiqib, budget mablag'laridan foydalanishda shaffoflik va hisobdorlikni kuchaytirish zarurligini ta'kidlagan. Xodiyev (2021) davlat moliyasini boshqarishda institutsional yondashuvning ahamiyatini asoslab, nazorat mexanizmlarini takomillashtirish orqali samaradorlikni oshirish mumkinligini ko'rsatgan. Yuldashev (2022) esa g'aznachilik tizimining davlat budjeti ijrosidagi rolini tahlil qilib, moliyaviy oqimlar ustidan real vaqt rejimida nazoratni kuchaytirish zarurligini qayd etgan.

Shu bilan birga, mavjud ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, g'aznachilik tizimida kapital qo'yilmalar bo'yicha risklarni boshqarish, xususan, avtomatlashtirilgan risk-skoring tizimini joriy etish, blokcheyn texnologiyasidan foydalanish va VFM auditini integratsiya qilish masalalari yetarli darajada chuqur o'rganilmagan. Aksariyat tadqiqotlar nazoratning umumiy jihatlariga qaratilgan bo'lib, proaktiv va raqamli nazorat mexanizmlarining kompleks modeli ishlab chiqilmagan.

Shu nuqtayi nazardan, mazkur tadqiqot mavjud ilmiy bo'shliqni to'ldirishga qaratilgan bo'lib, davlat budjeti kapital xarajatlarida risklarni boshqarishning innovatsion modelini ishlab chiqish orqali g'aznachilik tizimini yangi bosqichga olib chiqishni maqsad qiladi.

Xalqaro tadqiqotlarda davlat moliyaviy nazoratining asosiy vazifasi sifatida budget mablag'larining maqsadsiz sarflanishining oldini olish, samaradorlikni oshirish va shaffoflikni ta'minlash ko'rsatiladi. Mamatkulov va Abulfaizov (2024) tadqiqotlariga ko'ra, davlat moliyaviy nazorat tizimi budget mablag'larining noto'g'ri taqsimlanishi va noqonuniy sarflanishining oldini olishda muhim vosita hisoblanadi. Ularning fikricha, nazorat tizimining zaifligi mablag'larning maqsadsiz ishlatilishiga va samaradorlikning pasayishiga olib keladi.

G'aznachilik tizimida risk tushunchasi ko'pincha moliyaviy operatsiyalarning noto'g'ri amalga oshirilishi yoki mablag'larning belgilangan maqsadlarda ishlatilmasligi ehtimoli bilan bog'liq holda izohlanadi. Parry (2011) ta'rifiga ko'ra, davlat g'aznachiligidagi risk — bu mablag'larning to'g'ri hisobga olinmasligi, noto'g'ri yo'naltirilishi yoki "value for money" prinsipiga javob bermasligi ehtimolidir. Bu yondashuv xarajatlar samaradorligini baholashni risk menejmenti bilan bevosita bog'laydi.

Ilmiy adabiyotlarda davlat xarajatlari samaradorligini baholash uchta asosiy mezon orqali amalga oshirilishi qayd etiladi: hisobdorlik (accountability), samaradorlik (efficiency) va natijadorlik (effectiveness). Aynan samaradorlik mezoni resurslarning optimal foydalanishini, natijadorlik esa sarflangan mablag'larning yakuniy iqtisodiy natijaga ta'sirini baholaydi. Shu bois zamonaviy g'aznachilik tizimida xarajatlar ustidan nazorat faqat hujjatlar asosida emas, balki natijaviy ko'rsatkichlar orqali ham amalga oshirilishi zarur.

Risklarni baholash metodologiyasi bo'yicha tadqiqotlar davlat moliyaviy tizimida risklarni aniqlash, tahlil qilish va boshqarish bosqichlarini o'z ichiga oluvchi kompleks yondashuvni taklif etadi. Dorozik (2020) fikriga ko'ra, davlat sektorida risklarni baholash tizimi tashkilot ehtiyojlariga moslashuvchan bo'lishi va ichki nazorat tizimi bilan integratsiyalashgan holda ishlashi zarur. Bu yondashuv g'aznachilik tizimida risk-skoring kabi avtomatlashtirilgan mexanizmlarni joriy etish zaruratini asoslaydi.

Jahon banki tomonidan ishlab chiqilgan davlat ichki moliyaviy nazorat (Public Internal Financial Control — PIFC) konsepsiyasiga ko'ra, har bir davlat organi o'z faoliyati doirasida risklarni baholashi va ularni boshqarish bo'yicha ichki nazorat mexanizmlarini joriy etishi lozim. Ushbu yondashuv g'aznachilik tizimida risklarni markazlashgan tarzda emas, balki tizimli va ko'p darajali shaklda boshqarish zaruratini ko'rsatadi.

Empirik tadqiqotlar ham risklarni baholash tizimi davlat moliyaviy boshqaruvi samaradorligiga sezilarli ijobiy ta'sir ko'rsatishini tasdiqlaydi. Masalan, Uganda mahalliy boshqaruv organlari misolida olib borilgan tadqiqot natijalariga ko'ra, risklarni aniqlash va baholash mexanizmlarining rivojlanganligi budget boshqaruvi samaradorligini sezilarli darajada oshirgan. Bu esa risklarni boshqarish tizimi davlat xarajatlarining samaradorligini oshirishda muhim omil ekanligini ko'rsatadi.

Bundan tashqari, xalqaro amaliyotda davlat moliyaviy nazoratini baholash uchun PEFA (Public Expenditure and Financial Accountability) tizimi keng qo'llaniladi. Ushbu tizim davlat moliyaviy boshqaruvining kuchli va zaif tomonlarini aniqlash, xususan, xarajatlar samaradorligi va moliyaviy intizom darajasini baholash imkonini beradi.

Shu bilan birga, ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, mavjud tadqiqotlarda g'aznachilik tizimida aynan kapital xarajatlar doirasida risklarni avtomatlashtirilgan tarzda baholash (risk-skoring), noqonuniy mablag' sarfini real vaqt rejimida aniqlash va to'lovlarni natijaga bog'lash mexanizmlari yetarli darajada o'rganilmagan.



Ko'pchilik tadqiqotlar nazoratning umumiy mexanizmlariga qaratilgan bo'lib, proaktiv va raqamlashtirilgan nazorat modeli yetarli darajada ishlab chiqilmagan.

Kapital xarajatlar va ulardagi risklarni boshqarish bo'yicha klassik va zamonaviy yondashuvlar asosan davlat investitsiyalari samaradorligi (PIMA — Public Investment Management Assessment) doirasida o'rganilgan. R. Musgrave va P. Samuelson davlat xarajatlari nazariyasining asoschilari sifatida kapital xarajatlarning ijtimoiy ne'mat yaratishdagi rolini asoslab bergan.

A. Premchand o'zining davlat xarajatlarini boshqarishga oid ishlarida kapital loyihalarni rejalashtirishdagi noaniqliklar va "xarajatlarning oshib ketishi" (cost overrun) riskini alohida ta'kidlaydi. B. Flyvbjerg kapital loyihalardagi risklarni boshqarish bo'yicha eng mashhur tadqiqotchilardan biri bo'lib, u "optimism bias" (haddan tashqari optimistik yondashuv) nazariyasini ilgari surib, yirik infratuzilma loyihalarida xarajatlar nima sababdan rejadagidan o'rtacha 28 % ga oshib ketishini isbotlagan.

Rossiya va boshqa MDH davlatlari olimlari budget xarajatlarini nazorat qilish va fiskal risklarni minimallashtirish masalalariga ko'proq urg'u berishadi. V.V. Kovalyov va I.Y. Lukashevich davlat investitsiya loyihalarini baholashda diskontlash usullari va moliyaviy barqarorlik risklarini tahlil qilishgan. T.V. Sorokina budget xarajatlari samaradorligini oshirishda g'aznachilik nazoratining o'rni va kapital xarajatlarni ijro etishda yuzaga keladigan operatsion risklarni tadqiq etgan.

O'zbekistonda davlat budjeti va investitsiya jarayonlari islohotlari doirasida ushbu mavzu keng o'rganilmoqda. T.S. Malikov davlat budjeti daromadlari va xarajatlarini muvozanatlashtirish, budget taqchilligi sharoitida kapital qo'yilmalar samaradorligini oshirish masalalarini yoritgan. N.X. Haydarov davlat xarajatlarini boshqarishda soliq-budget siyosatining roli va investitsion loyihalarni moliyalashtirishning takomillashtirilgan mexanizmlari ustida tadqiqotlar olib borgan. O.O. Shomurodov kapital xarajatlar tarkibini optimallashtirish va davlat xaridlari tizimidagi korrupsion risklarni kamaytirish masalalariga e'tibor qaratgan.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Davlat moliyaviy nazoratini yangi bosqichga olib chiqish, ya'ni uni reaktiv nazoratdan proaktiv nazorat tizimiga o'tkazish dolzarb ilmiy va amaliy vazifaga aylanmoqda. Rivojlangan davlatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, davlat xarajatlari ustidan samarali nazoratni ta'minlash uchun riskga asoslangan yondashuv, raqamli texnologiyalar va avtomatlashtirilgan monitoring tizimlari keng qo'llaniladi (Thai, 2017; OECD, 2015).

## TAHLIL VA NATIJALAR

Hozirgi kunda O'zbekiston Respublikasida g'aznachilik tizimi davlat budjeti mablag'larining harakatini nazorat qilishda muhim institutsional mexanizm sifatida faoliyat yuritmoqda. G'aznachilik organlari asosan to'lov intizomini ta'minlash, shartnomalarni ro'yxatdan o'tkazish, hisob-fakturalarni tekshirish hamda mablag'larni o'z vaqtida o'tkazib berish funksiyalarini bajaradi (Vahobov, 2019; Xodiyev, 2021). Biroq ushbu tizimning mavjud modeli asosan formal va hujjatga asoslangan nazoratga yo'naltirilgan bo'lib, u loyihalarning iqtisodiy samaradorligi (NPV, IRR) va yakuniy natijadorligini baholash imkonini bermaydi (Yuldashev, 2022).

Xususan, blokcheyn texnologiyalari orqali moliyaviy operatsiyalarni shaffof va o'zgarmas shaklda qayd etish, avtomatlashtirilgan risk-skoring tizimlari orqali shubhali operatsiyalarni aniqlash hamda "Value for Money" (VFM) auditori orqali loyihalarning iqtisodiy samaradorligini baholash davlat moliyaviy boshqaruvining zamonaviy instrumentlari sifatida e'tirof etilmoqda (IMF, 2019; Albano & Sparro, 2019). Ushbu yondashuvlar inson omilini sezilarli darajada kamaytirib, korrupsiyaviy xavflarni pasaytiradi va budget mablag'laridan foydalanish samaradorligini oshiradi (Kelman, 2018).

Mazkur tadqiqotning dolzarbligi shundan iboratki, O'zbekiston sharoitida kapital qo'yilmalar ustidan nazorat mexanizmlarini zamonaviylashtirish, g'aznachilik tizimiga risklarni boshqarish instrumentlarini integratsiya qilish hamda nazoratni natijaga yo'naltirilgan model asosida tashkil etish zarurati mavjud. Ayniqsa, avtomatlashtirilgan risk-skoring tizimini joriy etish, blokcheyn asosida nazoratni kuchaytirish, KPI va VFM mezonlariga asoslangan to'lov mexanizmlarini ishlab chiqish muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega (OECD, 2020; World Bank, 2021).

Mazkur maqolaning maqsadi — davlat budjeti kapital xarajatlarida risklarni boshqarish tizimini takomillashtirish bo'yicha ilmiy asoslangan takliflar ishlab chiqishdan iborat. Tadqiqot doirasida mavjud g'aznachilik nazorat tizimi tahlil qilinadi, uning cheklangan jihatlari aniqlanadi hamda rivojlangan davlatlar tajribasi asosida innovatsion nazorat modeli taklif etiladi.

Tadqiqotning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

- kapital qo'yilmalar sohasidagi risklarni aniqlash va tizimlashtirish;
- g'aznachilik nazoratining mavjud mexanizmlarini baholash; riskga asoslangan nazorat modelini ishlab chiqish;
- raqamli texnologiyalar asosida nazorat tizimini takomillashtirish bo'yicha takliflar berish;
- taklif etilgan modelning iqtisodiy samaradorligini empirik jihatdan asoslash.



Mazkur tadqiqot natijalari davlat moliyaviy nazoratini modernizatsiya qilish, budget mablag'laridan foydalanish samaradorligini oshirish hamda korrupsiyaga qarshi kurashish mexanizmlarini kuchaytirishda muhim ilmiy va amaliy ahamiyat kasb etadi.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

**1. Metodologik yetishmovchilik:** Aksariyat ishlar kapital xarajatlarning ijtimoiy ahamiyatiga qaratilgan, biroq risklarni miqdoriy baholash (quantitative risk assessment) modellari (masalan, Monte-Karlo simulyatsiyasi) davlat sektorida kam qo'llanilgan.

**2. Institutsional muammo:** G'aznachilik organlariga ma'muriy vakolatlar berish orqali risklarni proaktiv (oldindan) boshqarish mexanizmi tizimli ravishda to'liq yoritilmagan.

**3. Raqamlashtirish:** GFMS (Davlat moliyasini boshqarish axborot tizimi) ma'lumotlari asosida risk-matritsalarini avtomatik shakllantirish masalasi yangi yo'nalish bo'lib qolmoqda.

Mavjud adabiyotlar kapital xarajatlarni rejalashtirishning nazariy asoslarini keng yoritgan bo'lsa-da, bugungi o'zgaruvchan iqtisodiy sharoitda g'aznachilik nazorati orqali risklarni operativ boshqarish va ularga nisbatan ma'muriy choralar ko'rishning yaxlit mexanizmini ishlab chiqish dolzarb vazifa bo'lib qolmoqda.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Flyvbjerg, B. (2014). *What you should know about megaprojects and why: An overview*. Project Management Journal. (Yirik loyihalardagi xarajatlar va risklarni boshqarish bo'yicha eng ko'p iqtibos olingan asarlardan biri).

2. Allen, R., Hemming, R., & Potter, B. H. (2013). *The international handbook of public financial management*. Palgrave Macmillan. (Davlat moliyasini boshqarish, jumladan kapital xarajatlar auditi bo'yicha fundamental qo'llanma).

3. Cangiano, M., Curristine, T., & Lazare, M. (2013). *Public financial management and its emerging architecture*. International Monetary Fund (IMF). (Byudjet risklarini boshqarishning zamonaviy arxitekturasi haqida).

4. International Monetary Fund (2018). *Public Investment Management Assessment (PIMA) handbook*. (Davlat investitsiyalarini boshqarishda samaradorlik va risklarni baholash metodologiyasi).

5. Кузнецова, И. В. (2020). *Управление рисками при исполнении бюджетных расходов по капитальным вложениям*. Москва: КноРус. (Kapital qo'yilmalar bo'yicha byudjet xarajatlari ijrosida risklarni boshqarish).

6. Афанасьев, М. П. (2021). *Государственные финансы: учебник для магистров*. Москва: Юрайт. (Davlat moliya tizimi va g'aznachilik nazorati nazariyasi).

7. Сорокина, Т. В. (2019). Риск-ориентированный подход в системе бюджетного контроля. *Финансы и кредит*. (Byudjet nazoratida risk-orientirlangan yondashuv).

8. Malikov, T. S. (2020). *Moliya: darslik*. Toshkent: Iqtisod-Moliya. (Davlat moliyasi va byudjet xarajatlari tarkibi tahlili).

9. Haydarov, N. X. (2019). *Davlat budjeti: darslik*. Toshkent: Innovatsion rivojlanish nashriyoti. (Byudjet jarayoni va xarajatlar samaradorligini oshirish masalalari).

10. Vahobov, A. V. (2021). *Davlat moliyasini boshqarish*. Toshkent: Moliya. (Davlat investitsiya dasturlarini shakllantirish va monitoring qilish metodikasi).



## IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

**Ingliz tili muharriri:** Feruz HAKIMOV

**Musahhih:** Zokir ALIBEKOV

**Sahifalovchi va dizayner:** Hasan MAQSUDOV

---

**2026. № 5**

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin. Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

EI.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot\_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot\_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

**Litsenziya raqami:** №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani  
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>